

“QUTADG‘U BILIG” ASARIDA DEHQON OBRAZI

Shoyimova Gulshod

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada “Qutadg‘u bilig” asaridagi dehqon hamda hunarmand obraziga ta’rif berilgan.

Kalit soʻzlar: Qutadg‘u bilig, ijtimoiy mohiyat, dehqon, hunarmand.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yoʻlidan maʼlumki, yurtning agrar rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon boʻlishi davlatda dehqon, denqonchilikka munosabatga masalalariga jiddiy eʼtibor darajasi bilan bogʻliq jarayondir.

Xususan, bugungi kunga qadar aynan qishloq xoʻjaligi masalalariga doir koʻplab qonun va farmonlar qabul qilingan boʻlib, jumladan, shu asnoda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida qarori shular jumlasidandir.

Bu munosabatlardan anglashiladiki, dehqon obrazi har zamonda va har davrda eʼtiborli shaxs sifatida ulugʻlangan. Jumladan, muqaddas kitobimiz “Qurʼoni karim”, Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi boʻlmish “Avesto”, Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig”, Boburning “Boburnoma”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul qulub”, “Majolis un-nafois” asarlarida dehqon obrazi xususida atroflicha fikr yuritilgan. Xususan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida koʻplab kasb-hunar turlari va dehqonchilik munosabatlari haqida maʼlumotlar beriladi.

VII-VIII asrlarda butun Oʻrta Osiyo arablar hukmi ostida boʻldi. Ammo X asrning boshlariga kelib arablar istilo qilgan yerlaridagi oʻz nufuzlarini qoʻldan bera boshladilar. Arablar istilosi davrida koʻplab madaniy va adabiy obidalar yoʻq qilib yuborildi, ularning juda katta qismi barbod boʻldi. El-yurtning oʻz ona tilida oʻqish istagi esa hech qachon pasaymaydi, aksincha, taʼqib qancha kuchli boʻlsa, istak shuncha baland boʻladi. Asar yozilgan paytda shu maʼnaviy ehtiyoj ham tobora ortib bormoqda edi.

Asarda Oʻgʻdulumish Oʻzgʻurmishga olimlar (shoirlar, tabiblar, taʼburchilar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar, turli, tabaqadagi kishilar) bilan muomalada boʻlish sirlarini oʻrgatadi. Koʻrinib turibdiki, “Qutadgʻu bilig”da tilga olingan mavzularning qamrovi juda keng. Ammo unda bitta bosh nuqta borki, u butun asardan qizil ip boʻlib oʻtadi. Bu inson masalasidir. Insonning ijtimoiy mohiyati, uning hayotdagi oʻrni, ijtimoiy vazifasi shoir tomonidan turli yoʻnalishlarda tahlil etiladi. Asarda oddiy xalq, mehnatkash inson alohida ehtirom bilan tasvirlangan, ayniqsa, dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar haqidagi boblar iliq mehr bilan yogʻrilgandir. Asarda turli-tuman kasblarning sanogʻi, bu kasb-hunar egalarida boʻlishi kerak boʻlgan xislat va fazilatlarining bayoni, ayni paytda oʻsha kasb-hunarlariga boʻlgan hurmat-eʼtiborning eʼtirofi hamdir. [1;8]

Temirchi, etikchi, yana oʻymakor

Bo'yoqchi, rassom, ham o'q-yoychilar bor. [1;133]

Bundan ko'rinadiki, "Qutadg'u bilig" asarida temirchi, o'ymakor, bo'yoqchi, rassom, o'q-yoychilar kabi kasb-hunarlar bo'lib,ular insonlar hayoti uchun muhim ekanligi, bular bilan birga yurish, ularning xizmatlariga munosib haq to'lash lozimligi haqida fikr yuritiladi:

Olam bezaklari ularda bo'lar,
Hayratli ish-amal egasi-shular.
Bular bilan qo'shil qorishib turgin,
Ularni sevintir, o'zing shod yurgin.
Ishing qilsalar, haq bergin ishga teng,
Yedir,ichir,tutgin oziqlarin keng. [1;134]

Shuningdek, barcha kasb turlaridan alohida xususiyatlari bilan ajralib turadigan sharaflı kasblardan biri dehqon kasbi ekanligini "Dehqonning qo'li keng" qismida alohida ta'kidlaydi:

Tag'in bir toifa bo'ladi-dehqon,
Kerakli kishilar bular har qachon,
Bular bilan yaqin bo'lgan hamisha,
To tomoq tashvishin bilmasdan yasha. [1;131]

Bundan ko'rinadiki,dehqon har qachon insonlar uchun kerakli shaxslar bo'lib,bularga yaqin bo'lgan insonlar tomoq tashvishini unutishi bayon etilgan bo'lib, don sochuvchi dehqon yerni yorish bilan rizq yo'llarini ochadi.

Nafas olgan butun tirik jonivor,
Dehqondan bo'lmog'i kerak minnatdor.
Shubhasiz, senga ham kerak bu kishi,
To tugal hal bo'lsin tomoqning ishi. [1;131]

Baytda qimirlagan har tirik jon borki, dehqondan minnatdor bo'lmog'i,insonlarning tomoq tashvishidan xoli bo'lishlari bevosita shu kasb egalarining zahmatli mehnatlarining natijasi ekanligidir.

Bular bilan birga bo'laver,qardosh,
Toza bo'lar bo'g'zing, halol qilar osh.
Saxiylikda yo'qdir, aslo unga teng,
Uning bor vujudi: fe'li, dili keng. [1;131]

Keyingi baytda esa bular bilan qardoshlik aloqalarini o'rnatish kerakligi,halol-pokiza rizq, halol luqma va taom aynan dehqonlar tufayli bekanligi, shuningdek, saxiylikda ularga teng keladigan kishi yo'qligi, ularning xushmuomala, sabr-toqatli, qalbi tozaligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Undan rizq topadi qimirlagan jon,
U bois bor jonzot yashaydi omon.
Bularga qo'shilgin, aralash o'zing,
Doim yaxshi so'zla,ochiq tut. [1;131]

Baytda ko'rinadiki, har bir insonning to'kis, sog'lom yashashi uchun dehqonlarning xizmati katta ekanligi,har bir inson bularga qo'shilib, aralashib yurishi ham qarz ham farz

ekanligi, ular bilan suhbatlashganda xushmuomalalik bilan yuzimizni ham so'zimizni ham ochiq tutishimiz lozimligi aytib o'tilgan.

Asarda O'g'dulmish ham so'z navbatini oldi:

-Sen dunyo holini faqat shunday deya bilmagin. Bunda o'z hayotingni achchiq qilasan. Agar olamdagi barcha odamlar o'zlari yashayotgan qishloq, shaharlarni qo'yib, jonlariga qasd qilganча tog'lar orasiga chiqib ketsa qanday bo'ladi. Dunyo vayron bo'ladi, yer yuzi qup-quruq bo'lib qoladi-ku!

Axir odam bolasi ochiqadi, yana to'yadi. Egningda kiyim, tomoqqa ovqat kerak. Ey qarindosh, ular hayotning yemi. Tirik odam ulardan voz kechmaydi. Sen faqat toatinga ishonib yurma. Mening so'zlarimga aqlingni yugurtirib kir. [I; III] Bundan ko'rinib turibdiki, O'g'dulmish O'zg'urmishga insonlar orasiga qaytishni, har qanday inson uzlatga chekinib tog'-u toshni makon tutsa, dunyo vayron bo'lishi, yer yuzi bo'shab qolishi, odam bolasi och qolib, taomlanishi, dam olishi, bu hayotning mezonini ekanligi, hayot faqat toat-ibodatdangina iborat emasligini aytadi. Bu o'rinlarda ham hayot uchun kishilar salomatligi uchun dehqon yetishtirgan noz-u ne'matlar, dehqonchilik mahsulotlari qanchalik muhim ekanligini anglaymiz.

O'zg'urmishning uzri:

Olamdan yetishdi menga ish o'zgi,

Kepak oziq bo'ldi, kiyim qo'y yungi.

Shakardan shirinroq kepak bo'tqasi,

Bu juldur kiyimim-ipaklar teng.

Yegin-ichgin-u, qorin to'yguncha iste'mol qil. Arpami, bo'tqami, qorningni to'yg'azsa kifoya. Ko'moch ye, g'o'ja ich, ammo moldek tashlanma-mijoz buziladi. Lazzatlar ketidan quvma, buning oxiri azob.

Demak, har bir narsada me'yor bo'lganidek, ovqatlanishda ham mayor bo'lishi, ammo doimiy bu narsalardan tiyilish, tog'ri ovqatlanmaslik insonni quvvatsizlikka, xotirasining zaiflashuviga, soglig'ida jiddiy muammolarga olib kelishini bugun fan va ilmlar isbotlab turibdi. Shu bois jamiyatimizda denqonlarga munosabat har qachongidan yuqori va shunday bo'lmog'i ham lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2017. B.131.

Umumiy sahifa.-200b.

2. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.-272b.

3. Bobur. Boburnoma. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.-368b.

4. Rahmonov V. Hikmatlar guldastasi.